

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>S.M.Zokirova</b>	
Hozirgi zamon ijtimoiy fanlar kontekstida disleksiya.....	1315
<b>I.T.Xojaliyev</b>	
Tasvir nutq tipining modal aspketi.....	1319
<b>M.A.Usmanova</b>	
"Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin" asarida izofiy birikmalarning qo'llanilishiga doir nazariy masalalar.....	1324
<b>R.N.Umarova, O.U.Xolmatova</b>	
Kognitiv lingvistikada konsept va maqol tushunchasi munosabati .....	1328
<b>O.F.Turdaliyev</b>	
"Guliston" asarining o'rganilishi va uning tarjimalari.....	1333
<b>R.M.Shukurov, S.S.Abdikunduzova</b>	
Kommissiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi.....	1337
<b>A.I.Saminov</b>	
Oksyumoron va unga yondosh stilistik figuralar xususida.....	1341
<b>G.Z.Rozikova</b>	
Gaplarga xos sintagmatik nomutanosiblikni yuzaga keltiruvchi omillar .....	1346
<b>N.A.Quldashev, F.N.Mahmudova</b>	
Allegory as a research object of linguistics .....	1351
<b>E.K.O'rinboyeva, G.S.Jo'raboyeva</b>	
"Devonu lug'otit turk"da qo'llanilgan ayrim maqollarning lingvopoetik tahlili .....	1354
<b>U.I.Nosirova</b>	
Poetik matnlarning визуал-график ifodasi .....	1360
<b>Sh.R.Mo'ydinov</b>	
Ingliz va O'zbek tillarida "Hayot/O'lim" konseptual oppozitsiyasi verbalizatorlari struktural-semantik maydoni.....	1366
<b>Y.I.Karimov</b>	
O'zbek tilshunosligida til birliklari va so'z birikmalari talqini .....	1369
<b>G.S.Jo'raboyeva, G.V.Ergashova</b>	
"Qisasi rabg'uziy" asarida qo'llangan ko'makchilar tahlili .....	1373
<b>D.M.Ismoilova</b>	
Lingvogenderologiyaning nazariy masalalari .....	1378
<b>G.S.Jo'raboyeva, E.K.O'rinboyeva</b>	
"Devonu lug'otit turk" asari va toponimlar.....	1383
<b>Sh.M.Iskandarova, N.R.Maxmudova</b>	
Tub so'z holatidagi ornitonimlar .....	1388
<b>E.I.Ibragimova, E.K.O'rinboyeva</b>	
Sintaktik sathda qarama-qarshilik munosabatining ifodalanishi .....	1392
<b>Sh.M.Iskandarova</b>	
Lug'aviy birliklarda differensial-mazmuniy munosabatlar .....	1397
<b>X.X.Dusmatov, Z.N.Maxmudova</b>	
So'z o'yinlarining askiyachilar nutqida qo'llanilishi .....	1401
<b>Z.A.Akbarova</b>	
Inson dunyoqarashi olamni modellashtiruvchi sifatida .....	1406
<b>P.M.Axmadjonov</b>	
Sayf Farg'oniy she'riyatida istiora badiiy so'z san'atining qo'llanilishi.....	1409
<b>O.Q.Abbozov</b>	
Diniy motivli toponimlar.....	1413
<b>I.T.Axmadjonov</b>	
Deminutiv morfemalarning semantikasi va uslubiyati.....	1416
<b>M.T.Abdupattoyev</b>	
Poetik nutqda aktualizatsiya va aktual bo'linish .....	1422
<b>A.Mamajonov, O.Q.Abbozov</b>	
So'x tumani toponimlarining lingvistik tadqiqi.....	1427
<b>M.T.Abdupattoyev</b>	
Matnning statistik tahlili.....	1433



UO'K: 740.512.133-1

**O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TIL BIRLIKLARI VA SO'Z BIRIKMALARI TALQINI**  
**ТОЛКОВАНИЕ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ И СЛОВСОЧЕТАНИЙ В УЗБЕКСКОЙ**  
**ЛИНГВИСТИКЕ**

**INTERPRETATION OF LANGUAGE UNITS AND WORD COMBINATIONS IN UZBEK**  
**LINGUISTICS**

**Karimov Islombek Yaxyoitdin o'g'li**   
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada qator tilshunos olimlarning so'z va so'z birikmalari xususidagi ilmiy-nazariy qarashlari o'rganib chiqilgan holda, tilshunoslikda so'z va so'z birikmalarining xususiyatlari chuqur tadqiq qilinib, so'z va so'z birikmalarining o'xshash hamda farqli tomonlari, ularning gap ichida va gapdan tashqari holatlardagi vazifalari, o'ziga xos jihatlari o'rganiladi, shuningdek, so'z birikmasining so'z, qo'shma so'z, gap va iboradan farqlari xususida ham to'xtalib o'tiladi.*

**Аннотация**

*В данной статье изучены научно-теоретические взгляды ряда лингвистов на слова и словосочетания, глубоко исследованы особенности слов и словосочетаний в лингвистике, их сходство и их различия, их функции в предложении и вне предложения, изучаются их специфические стороны, а также обсуждаются отличия словосочетания от слова, сложного слова, предложения и словосочетания.*

**Abstract**

*In this article, the scientific-theoretical views of a number of linguists on words and phrases have been studied, the features of words and phrases in linguistics have been deeply researched, and similar and their differences, their functions in the sentence and outside the sentence, their specific aspects are studied, as well as the differences of the phrase from the word, compound word, sentence and phrase are also discussed.*

**Kalit so'zlar:** Sintaksis, so'z, so'z birikmasi, omonimiya, polisemiya, leksik ma'no, grammatik ma'no, qo'shma so'z, ibora.

**Ключевые слова:** Синтаксис, слово, словосочетание, омонимия, многозначность, лексическое значение, грамматическое значение, сложное слово, словосочетание.

**Key words:** Syntax, word, phrase, homonymy, polysemy, lexical meaning, grammatical meaning, compound word, phrase.

**KIRISH**

Tilning eng muhim ijtimoiy vazifasi fikrni aniq shakllantirish, uni tushunarli ifoda etish, insonlarga fikr almashinuv vositasi sifatida xizmat qilishdir. Biz muloqot qiladigan til turli birliklardan iborat bo'lib, ular tilda o'ziga xos muhim bir vazifalarni bajaradi. Lingvistik jihatdan tahlil qilinganda esa til birliklari alohida ajratilib, aniqlanadi hamda izohlanadi. Tildagi ma'lum bir qoidalar asosida so'zlarning o'zaro birikuvidan so'z birikmasi hamda gaplar hosil bo'ladi. Grammatikaning eng muhim bo'limlaridan biri bo'lgan sintaksisda so'z birikmalari, gaplarning qurilishi hamda ifoda xususiyatlari o'rganiladi. Sintaksis yunoncha "syntaxis" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, yopishtirish, bog'lash kabi ma'nolarni anglatadi. Sintaksis so'zlarning bir-biriga bog'lanishini va gaplarni o'rganganligi sababli asosan, quyidagi 2 bo'limga ajratiladi: 1) so'z birikmasi sintaksisi; 2) gap sintaksisi. So'z birikmalarini hosil qilishda ham, gaplarda ham so'zlar ishtirok etadi. Ushbu maqola tilshunoslikda so'z va so'z birikmalarining lingvistik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

So'z va so'z birikmasi borasida tilshunos olimlar tomonidan turli fikrlar va qarashlar mavjud. Xususan, F. De. Sossyur so'z haqida shunday deydi: "So'z tushunchasi bizning tasavvurimizdagi konkret til birligi bilan teng emas... Tilning konkret birligini so'zdan qidirmaslik kerak".



Soʻz — leksemaning nutqda muayyan shakl va vazifa bilan voqelangan koʻrinishi. Oʻz tovush qobigʻiga ega boʻlgan, obyektiv narsa-hodisalar haqidagi tushunchani, ular oʻrtasidagi aloqani yoki ularga munosabatlarni ifodalay oladigan, turli grammatik maʼno va vazifalarda qoʻllanadigan eng kichik nutq birligidir.

Soʻz birikmasi — nutq va tafakkur jarayonida bir-biriga tobelanish yoki tenglik asosida birikkan, maʼno va grammatik jihatdan oʻzaro bogʻlangan, yaxlit, biroq qismlarga ajraladigan, tushunchani ifodalovchi ikki yoki undan ortiq mustaqil maʼnoli soʻzlar birikmasi.

Soʻz predmet, voqea-hodisa va shu kabilarning sodda nomini ifodalasa, soʻz birikmalari, odatda, ikki yoki undan ortiq soʻzlardan tashkil topgan boʻlib, predmet, voqea-hodisa, turli jarayonlar va shu kabilarning murakkab nomini bildiradi, yaʼni u butun, shu bilan birga boʻlingan tushuncha va tasavvurlarni ifodalaydi. Masalan: bayroq - oq bayroq, Oʻzbekiston Respublikasining bayrogʻi; asar - ilmiy asar, badiiy asar.

Soʻz birikmalari ikki yoki undan ortiq soʻzlarning analitik yoʻl bilan birikuvidan hosil boʻluvchi sintaktik butunlikdir.

Soʻz ham, soʻz birikmalari ham tilda juda muhim boʻlgan birliklar hisoblanadi. Avvalo, soʻz va soʻz birikmalarining bir-biriga oʻxshash jihatlarni koʻrib chiqamiz:

- Har qanday tilning asosini soʻzlar tashkil qiladi, biroq, har bir soʻz aniq bir maʼno ifodalagani bilan bu til emas, til boʻlishi uchun soʻzlar bir-biri bilan munosabatga kirishib, tugal maʼno ifodalab, gap shakllanishi kerak. Gap oʻz – oʻzidan hosil boʻlmaydi, avvalo, soʻzlar birikib, soʻz birikmalari hosil boʻladi va ulardan gap shakllanadi. Soʻzlar ham, soʻz birikmalari ham nutqda, gapda ishtirok etadi va olimlarning fikricha, bu jihatdan ular bir-biriga oʻxshashdir.

- Soʻzlar tilda nominativ vosita boʻlib, odatda, biror predmet, voqea-hodisa, turli jarayonlar, belgilarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Soʻz birikmalari ham tilda xuddi shunday vazifalarni bajaruvchi nominativ vositalardir. Lekin soʻz birikmalari ikki yoki undan ortiq, asosan, mustaqil soʻzlardan tashkil topib, biror yagona, aniq tushunchalarni ifodalaydi. Baʼzan soʻz birikmasining vazifasini bittagina soʻz, baʼzan esa, aksincha, bitta soʻzning vazifasini soʻz birikmasi ham bajarishi mumkin. Shunga koʻra, soʻz birikmalari ham soʻz singari nominativ vazifani bajarishi mumkin. Masalan: Xorazm viloyatining mehnatkashlari koʻp yillar davomida sholining yangi navini yaratishga harakat qildilar. Ular yaqinda davlatga mehnatlari natijasi boʻlgan yangi navni taqdim qildilar. Ushbu gapning egasi birinchi gapda – Xorazm viloyatining mehnatkashlari - soʻz birikmasi orqali ifodalangan. Ikkinchi gapda esa ega bitta soʻz bilan yaʼni *ular* soʻzi bilan ifodalangan. Keltirilgan soʻz birikmasi ham, soʻz ham gapda bir xil maʼno hamda bir xil vazifada qoʻllangan. Ammo, farqli jihati, birinchi gapda ega sifatida uchta soʻzdan iborat boʻlgan soʻz birikmasi ishlatilgan va u murakkab, yanada aniq boʻlgan tushunchani ifodalayapti. Soʻz birikmasi tarkibidagi barcha soʻzlar soʻzlar oʻz leksik maʼnolariga ega boʻlgan mustaqil soʻzlar ekanligi sababli, ularning har biri maʼlum bir tushunchalarni ifodalab kelgan. Keyingi gapda esa soʻz birikmasining vazifasini bitta soʻzning oʻzi bajarib kelgan va bu soʻz gapda umumiy tushunchani bildirgan, soʻz birikmasi esa undan koʻra aniqroq boʻlgan tushunchani ifodalagan.

Nominativ vazifalariga koʻra soʻz va soʻz birikmalari oʻxshash boʻlgani bilan, ularni bir xil deyish xato. Boisi, soʻz va soʻz birikmalari leksik, grammatik xususiyatlariga, tuzilishiga koʻra bir-biridan tubdan farq qiladi va taʼkidlanganidek, soʻz umumiy maʼno ifodalasa, soʻz birikmasi leksik maʼno tashuvchi bir nechta soʻzlarning birikuvidan tashkil topib, soʻzga nisbatan yanada aniq, tor va yaxlit maʼnoni bildirib keladi, u butunligicha murakkab tushunchani ifodalaydi hamda uning tarkibidagi soʻzlar esa murakkab tushunchaning elementlarini ifodalaydi: toʻqimachilik korxonasi, shahar hokimiyati. Koʻrinib turibdiki, soʻz birikmasiga tushunchalar yigʻindisidan tashkil topgan bir butun, murakkab tushunchani ifodalovchi sintaktik birlik sifatida qarash mumkin. Soʻz birikmalarida tushuncha ancha aniq va ravshan boʻladi: Gʻoʻnan - uch yashar ot; Olqor - yovvoyi togʻ echkisi.

- Soʻz birikmalari soʻzlar singari nominativ vazifalarni bajarishi tufayli soʻzlar kabi gap tarkibida ham, gapdan tashqarida ham qoʻllanilishi mumkin. Gapdan tashqarida soʻz birikmalari asosan, sarlavhalar, gazeta va jurnallarning nomlari, kitoblarning nomlari, tashkilotlar nomlarida ishlatilishi mumkin. Masalan: vodiy qiyofasi, shonli sana (sarlavha); "Sharq yulduzi" (jurnal nomi); "Oʻtkan kunlar" (asar nomi); Milliy tiklanish partiyasi (tashkilot).



## TILSHUNOSLIK

- So'zlar singari so'z birikmalarida ham modallik, shaxs, zamon kategoriyalari, predikativlik xususiyatlari yo'q. Bular faqat gapga xos xususiyatlar bo'lib, agar so'z birikmasi predikativlikka ega bo'lsa, unda u endi so'z birikmasi emas, gap hisoblanadi.

- So'zlar leksik, grammatik xususiyatlariga ko'ra, so'z turkumlariga ajratilib, tasniflanadi. So'z birikmalari kamida ikkita so'zdan iborat bo'lib, ulardan biri hokim (bosh) so'z, ikkinchisi esa tobe (ergash) so'zdir. Hokim so'z so'z birikmasining asosi bo'lib, hokim so'z qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligiga ko'ra so'z birikmalari ham otli birikmalar, fe'lli birikmalar kabi tasniflanadi. Ko'rinadiki, so'z birikmalarining tasniflanishi so'zlarga, ularning leksik, grammatik xususiyatlariga bog'liq. Bu ham so'z va so'z birikmalari orasida bog'liqlik, yaqinlik borligini anglatadi. So'z bo'lmasa, so'z birikmasi ham mavjud bo'lmaydi.

- So'zlar o'z shaklini o'zgartirish xususiyatiga ega ya'ni ular turlanadi, tuslanadi. Bu xususiyatlar so'z birikmalarida ham yuz beradi. Bu holatni asosan, hokim so'z tarkibida ko'proq kuzatishimiz mumkin: uy - uylar, uyim, uying, uyi, uyimiz; mening uyim, sening uying, uning uyi, bizning uyimiz, sizning uyingiz; ishga bordim, ishdan qaytdik.

- So'zlar to'liqsiz gap bo'la olgani kabi, so'z birikmalari ham to'liqsiz gap bo'lib kelishi mumkin: Gulni kimga terding? – Onamga. (so'z bilan) Barcha hujjatlar qachon tayyor bo'ladi? - Bir haftadan keyin... (so'z birikmasi bilan).

- Shuningdek, so'zlar ham, so'z birikmalari ham gapda undalma, kirish so'z, nominativ gap, atov gap, ajratilgan bo'lak vazifasida kela oladi. U bir qator asarlarni - ilmiy, badiiy, she'riy – zavq bilan o'qir edi. Ayolning ro'parasidagi stolda bir kishi, chiroyli kiyingan, sochlari oqargan, nimadir yozib o'tirardi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqorida so'z va so'z birikmasining o'xshash xususiyatlarini ko'rib chiqdik, endi esa ularning farqli jihatlarni haqida to'xtalib o'tsak, so'z umumiy tushunchani ifodalagan holda tilda doim tayyor holatda mavjud bo'ladi. Chunki so'z tarixiy kategoriya bo'lib, u til tarixiy taraqqiyotining muayyan davrida paydo bo'ladi, ma'lum ma'no bilan bog'lanib, tilda shu ma'noni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu sababdan ham har bir tilda o'z so'zlari - lug'at boyligi bo'ladi. So'z birikmalarida esa bu kabi xususiyat yo'q, ular tilda tayyor holda mavjud bo'lmaydi. So'z birikmalari nutq jarayonida so'zlovchining o'z fikrini aniq va tushunarli yetkazib berishga bo'lgan talabiga ko'ra kamida ikkita leksik ma'noga ega bo'lgan so'zlardan tuziladi va ma'noni aniqlashtirib, chegaralab ifodalashga yordam beradi.

So'zlar bitta leksik ma'noni ifodalab, biror predmet, voqea-hodisa yoki belgining nomini atab keladi, so'z birikmalari esa ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topib, so'zlarning ma'nosini alohida, aniq ko'rsatib kelishdan tashqari, ularning o'zaro aloqasini ham namoyon qiladi. Madinaning ruchkasi so'z birikmasida shu ikki predmetning nomini atashdan tashqari, ularning bir-biriga munosabati, ya'ni ruchkaning kimga (Madinaga) qarashliligi ham ifodalangan.

Shuningdek, so'zlar tovush yoki tovushlar yig'indisidan tashkil topadi, so'z birikmalari esa ikki va undan ortiq so'zlarning birikishidan hosil bo'ladi. Bundan tashqari, so'z ma'lum bir tilning o'z grammatikasiga xos bo'lgan qoidalarga ko'ra shakllangan, ham morfologik, ham sintaktik, ham semantik jihatdan butunlikka ega bo'lgan, boshqa mayda qismlarga bo'linmaydigan, o'zi tegishli bo'lgan tilning asosiy til birligi hisoblanadi. So'z birikmalari esa bunday butunlikka ega emas. So'z birikmalari asosan, kamida ikki mustaqil so'zlarning erkin birikuvidan hosil bo'ladi va ularni yana qaytadan bo'laklarga ajratish, bo'lib yuborish, boshqa mos so'zlar bilan almashtirish mumkin.

Yana bitta farqli tomoni, grammatik jihatdan so'z morfologik birlik, so'z birikmasi esa sintaktik birlik hisoblanadi. So'zlar doim ikkita ma'no - leksik ma'no va grammatik ma'no, so'z birikmalari esa bitta ma'no - leksik ma'no ifodalaydi. Shuningdek, tarkibiy va tuzilishi jihatidan ham so'zlar morfologik, so'z birikmalari esa sintaktik elementlardan tashkil topadi. Shu tufayli ham so'zlar morfologik belgilarga, so'z birikmalari esa sintaktik belgilarga ega bo'ladi.

So'z variantlari faqat so'zlarga xos xususiyat hisoblanadi (uy – bino ma'nosida, uy – turar joy ma'nosida qo'llanilishi), so'z birikmalarida bunday variantlar bo'lmaydi.

Ko'p ma'nolilik ya'ni polisemiya, omonimiya xususiyati ham faqat so'zlarga xosdir. Bu xususiyatlar so'z birikmalarida bo'lmaydi, chunki ular oldindan mavjud bo'lmaydi va fikrni aniq yetkazish talabi bilan nutq jarayonidagina yuzaga keladi. Shuni ham aytish kerakki, so'z birikmalari



tarkibida so'zlar polisemiya, omonimiya xususiyatlarini yo'qotadi va faqat bitta aniq ma'nonigina ifodalab keladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, umumlashtiradigan bo'lsak, so'z birikmasi – ikki va undan ortiq mustaqil so'zning tobe grammatik aloqa (bitishuv, moslashuv, boshqaruv) asosida birikishi natijasida hosil bo'lgan, ikki qismdan — hokim va tobe qismdan iborat bo'lgan, borlikdagi narsa va hodisalarni aniq, yaxlit ma'noda ifodalab keluvchi sintaktik tuzilma, nutq birligidir: kitobni o'qimoq, oydin kecha, oliy ma'lumot (oliy— tobe qism, ma'lumot — hokim qism). So'z birikmalari ham tarkibidagi so'zlar soniga qarab sodda va murakkab so'z birikmalariga bo'linadi.

So'z birikmasining so'zdan farqli va o'xshash jihatlari haqida batafsil to'xtalib o'tdik, ammo, shu o'rinda so'z birikmasining qo'shma so'z, ibora va gapdan farqi haqida ham aytib o'tish muhimdir.

Qo'shma so'z leksik birlik bo'lib, ma'no anglatadi. Qismlari orasida grammatik aloqa yo'qolgan va bitta so'z urg'usiga ega bo'ladi. So'z birikmasi esa tushuncha anglatadi hamda qismlari orasidagi grammatik aloqa sezilib turadi. Har bir so'z o'z mustaqil urg'usiga ega bo'ladi. Qo'shma so'zlarning ko'pchiligi tarixan so'z birikmalari asosida yuzaga kelgan bo'lib, yaxlitlanib ketgan, shu tufayli ham ayrim so'z birikmasi va qo'shma so'z omonim bo'lishi mumkin: oqqush - oq qush.

Ibora turg'un birikma bo'lib, ma'no jihatidan bir so'zga teng, ajralmas holatga kelib qolgan birlikdir. Uning tarkibidagi so'zlarni hokim yoki tobe qismlarga ajratib bo'lmaydi: tosh yo'l (so'z birikmasi) – oq yo'l (ibora).

So'z birikmasi ham, gap ham grammatik birlik hisoblanadi, lekin so'z birikmasi tushuncha, gap tasdiq yoki inkor hukmi ifodalaydi. So'z birikmasi mazmun va ohang tugalligiga ega bo'lmaydi, fikr ifodalamaydi, predikativlikka ega emas, shu xususiyati bilan sintaktik birlik bo'lmish gapdan farqlanadi. So'z birikmasi atash ohangi bilan aytiladi: katta ko'cha. Gap kesimlik qo'shimchalari bilan shakllangan ya'ni gap predikativlik xususiyatiga ega bo'ladi: vazifani bajarish - so'z birikmasi; Vazifani bajardi. – gap; chiroyli gul (so'z birikmasi) - gul chiroyli (dir) (gap).

Gap bitta so'zdan ham iborat bo'lishi mumkin, so'z birikmasi esa har doim eng kamida ikkita mustaqil so'zdan iborat bo'ladi: Bahor (gap). Atrof yam- yashil libosga (so'z birikmasi) burkangan. Ushbu xususiyatlari bilan gap va so'z birikmasi o'zaro farqlanadi.

#### XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, so'z birikmalari qo'llanilish holatlari, vazifalari hamda shu kabi bir qator xususiyatlariga ko'ra so'zlar bilan o'xshash bo'lsada, so'z birikmasi va so'z butunlay bir-biridan farq qiluvchi, boshqa-boshqa tushunchalar bo'lib, har birining o'z o'ni, vazifasi mavjud. Demak, so'zlarning butun shakllanganligi va butun ma'nolilik xususiyati ularning so'z birikmalaridan tubdan farq qilishini ko'rsatuvchi asosiy belgilar hisoblanadi.

So'z birikmasi so'zlar kabi narsa, belgi, harakatni atashga xizmat qiladi. Lekin so'z leksik hodisa, so'z birikmasi esa grammatik hodisa bo'lib, so'z - ma'no ifodalaydi, so'z birikmasi esa tushuncha ifodalaydi. So'z ma'noni umumiy tarzda ifodalasa, so'z birikmasi ma'noni ajratib, aniqlab ifodalaydi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ф. де Соссюр. Курс общей лингвистики (русский перевод), М., 1933.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. — T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
3. Nuriddinov N.N. Fors tilida qo'shma so'z va so'z birikmalarining distinktiv belgilari: Fil.fan.nom. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. — T., 2020.
4. Sharipov M.K. Hozirgi o'zbek tilida so'z birikmalari sintaksisi masalasi. — Toshkent, 1978.
5. Maxmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent, 1995.
6. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixojayeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent, 1992.
7. Abdullayev F. So'zlar o'zaro qanday bog'lanadi? – Toshkent, 1974.
8. В. В. Виноградов. Вопросы изучения словосочетаний. ВЯ, № 3. 1954.
9. О. С. Ахманова. Словосочетание. Сб. Вопросы грамматического строя. М., 1955.
10. Грамматика русского языка, т. 1, синтаксис, ч. 1. М., 1954. 11. Ю. Сейидов. Озарбайжон адабий тилида сўз бирикмалари (озарбайжон тилида), Баку. 1966